



BOSHLANG`ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARNING MAZMUNI VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Muallif: G.Siddiqova¹, Murodov Jasurbek Temur o`g`li²

Affilyatsiya: JDPU katta o`qituvchisi¹, JDPU Pedagogika-psixologiya yo`nalishi 3-kurs talabasi²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504962>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalarning savod chiqarish davridan to-boshlang`ich sinf o'quvchilik davrida o'rganilgan bilimlarni o'zlashtirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati va ta'limgarayonidagi o'rni to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limgarayon, didaktika, didaktik topshiriq, o'zin.

Ta'limgarayon tez va shiddatli yangiliklar bilan boyitilib, o'sish va rivojlanish jadal ketayotgan bir paytda o'quvchi yoshlarni bilimga qiziqtirish va ularni darsgarayoniga jalb qilish nihoyatda mushkul vazifaga aylanib bormoqda. Maktabga ilk qadam qo'ygan bola ongida bilimga bo'lgan chanqoqlik, yangicha tassavur va o'qish-yozishga bo'lgan qiziqish uning sirli bir olamga yetaklab kiradi go'yo. Ammo bu o'quvchilarni savod chiqarish vaqtida bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlarini so'ndirmasdan, charchoq xissi va murakkab vaziyatlardan chiqarib olish uchun ta'limgarayonida qo'llanilishi lozim bo'lgan didaktik o'yinlarning o'rni beqiyos. Ta'limgarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz bu maqolada ta'limgarayon, didaktik topshiriq, o'zin topshiriqlari singari tushunchalarining ta'rifini va ularning ma'nosini ochib berishga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ta'limgarayon – oquvchilarga ko'nikma va malakalar berishning, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar o'qib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir. Ular xotirasining boyishi, ular nutqi va tafakkurining o'sish, turli xil metod va usullar yordamida sodir bo'ladigan vaziyatdir. O'zin – bolalarning ongi, qalbiga yo`l toppish usulidir.

Ta'limgarayon – bola singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'zin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'zin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'zin kichik mifik yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'zin – ta'limgarayon beruvchi usul bo'ib, bu usul muayyan ta'limiylar maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ldi. Har bir didaktik o'yni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, "Issiq kartoshka" o'ziniga qo'yiladigan didaktik



topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan arifmetik amallar haqidagi tushunchalarini, hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiyl maqsadning bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'adi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa, o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'limg-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i – o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. "Jimjitlik" o'yinida bolalarga beriladigan topshiriq o'qituvchi rasmida ko'rsatgan buyumlar miqdorini sanab, son natijasini topishdir. O'yin qoidasi ovoz chiqarmasdan rasmida ko'rsatilgan buyumlar miqdoriga mos keluvchi son yozilgan kartochkani ko'rsatishni talab etadi.

"Qaysi biri qo'shildi" o'yini. Didaktik topshiriq: son qatori haqidagi tushunchani mustahkamlash. O'yin topshirig'i: oldin turgan bolalarni sanab chiqib, yana qancha qo'shilganini aytib berish. O'yin tasviri: bir necha bola bir qatorga turadi. Qolgan bolalar ularni sanab chiqishadi. O'qituvchi imo-ishorasi berishi bilan o'tirgan o,,quvchilar ko'zlarini yumadilar. O'qituvchi ovoz chiqarmasdan yana bir o'quvchini doskaga chaqirib, saflanganlar qatoriga turg'azib qo'yadi. U "Mumkin" degandan so'ng o'quvchilar ko'zlarini ochib, nechanchi ("beshinch", keyin "oltinchi" va hokazo) kelib 19 qo'shilganini aytib berishadi. Bu o'yin "Ketgan kim?" o'yiniga qaraganda anchagina yengil. Uni dastlabki kunlarda o'tkazish mumkin. Bunday o'yinlar turli usullarda o'tkaziladi. Chunonchi: "Qaysi o'yinchoq yashirib qo'yildi", "Qaysi o'yinchoq qo'shib qo'yildi" va hokazo. Bolalarda noto'g'ri tushuncha hosil bo'ib qolmasligi uchun bir xil buyumlardan foydalanish kerak. Chunki o'yinchoqlar har xil bo'gan taqdirda bolalar to'g'ri javob berolmay, "beshinch" deyish o'rniiga "o'yinchoq" yoki "kubik" deb yuborishlari mumkin va hokazo.

"Sanayver" turidagi o'yinlar ham shu guruhg'a kiradi. Bolalarni doskaga chiqarish va safga tizib qo'yish, keyinchalik esa to'g'ridan-tog'ri qatorma-qator sanatish mumkin. Quyidagi didaktik materiallardan foydalaniladi: suratlar, jadvallar, abak (sanoq asbobi), o'yinchoqlar, cho'tlar, cho'plar, qo'da yasalgan qog'oz buyumlar, sxemalar, sanoq materiallari va geometrik shakllar solingan qutichalar va boshqa narsalar. Boshlang`ich sinf matematika darslarida qo'laniladigan o'yinlar nomi: "Sanayver", "Ko'rganni eslab qol", "Biz kamayib qoldik", "Kim ketdi (takrorlash)", "Nima oz", "O'rnnini top" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan didaktik o'yinlardan boshlang`ich sinflarda foydalanish mumkin.

Xulosa o`rnida shuni aytish lozimki, ta'limg jarayonida bo'lajak boshlang`ich sinf o'qituvchilari boshlang`ich ta'limg didaktikasining samaradorligiga erishish ko'nikmasini egallashi taqozo etiladi. Buning uchun talabalar quyidagilarga amal qilishi kerak: - boshlang`ich ta'limg didaktikasi bo'yicha bilimlarni egallah; - boshlang`ich ta'limg didaktikasiga doir qo'shimcha adabiètlarni o'qish; - "Boshlang`ich ta'limg" jurnali va "Ma'rifat" gazetalari bilan muntazam tanishib borish; - Ustozlardan boshlang`ich ta'limg didaktikasiga doir maslahatlar olish.

Bunday bilimlarni egallab borish har bir o`qituvchning kasbiy faoliyatida samarali ta'sir ko'rsatadi, o`z ustuda ishlashga undaydi. Darslarni sifatli va qiziqarli bo`lisini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Jabborova O., Umarova Z., Babaxodjaeva L. Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – Toshkent. 2021.

Jabborova O. Boshlang'ich ta'lif metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent. 2022.

Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent. 2021.

Mardonov Sh., Jabborova O. Boshlang'ich ta'lifda asosiy tushunchalar. XXI asr ta'lif tizimida innovatsiogn va integratsion yondashuvlar. Jizzax. 2021.

Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – Toshkent. 2012.

Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2015

